



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar-fevral-fevral
oylari uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 265,1 mln. AQSH dollariga etdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **265,1** (+4,1 %)

(2024- y.: **254,8**)



Saldo

2025- y.: **101,7** (2024- y.: **96,8**)



Eksport

2025- y.: **183,4** (+4,3 %)

(2024- y.: **175,8**)




Import

2025- y.: **81,7** (+3,5 %)

(2024- y.: **79,0**)

TSA'dagi ulushi


30,8 %



69,2 %

QIT'ALAR KESIMIDA TSA


(2025-yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 164,9 Import – 32,2 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 74,3 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 14,3 Import – 40,3 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 20,6 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 0,1 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,1 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 2,9 Import – 9,2 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 4,5 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 1,2 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,5 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,0 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,0 %</p>

AYRIM ITTIFOQ VA IQTISODIY TASHKILOTLAR BILAN TSA

(yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)



TSAda eksport hajmi 183,4 mln. AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi) va import hajmi 81,7 mln. AQSH dollariga (103,5% ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 101,7 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.










NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Fransiya, Rossiya, Xitoy, AQSH va Buyuk Britaniyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.











Navoiy viloyati jahonning 61 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (53,2%), Rossiyada (11,8%), XXRda (8,2%), AQSHda (4,5%) va Buyuk Britaniyada (3,7%) qayd etilgan.











Fransiya TSA – 141,1 Eksport: 140,5 Import: 0,6  53,2 %	Rossiya TSA – 31,2 Eksport: 17,4 Import: 13,8  11,8 %	XXR TSA – 21,6 Eksport: 2,7 Import: 18,9  8,2 %	AQSH TSA – 12,0 Eksport: 2,8 Import: 9,2  4,5 %	Buyuk Britaniya TSA – 9,9 Eksport: 0,0 Import: 9,9  3,7 %
Qozog'iston TSA – 7,8 Eksport: 1,5 Import: 6,3  2,9 %	Turkiya TSA – 7,1 Eksport: 3,0 Import: 4,1  2,7 %	Daniya TSA – 4,8 Eksport: 4,3 Import: 0,5  1,8 %	Yaponiya TSA – 4,0 Eksport: 0,0 Import: 4,0  1,5 %	Germaniya TSA – 2,9 Eksport: 0,0 Import: 2,9  1,1 %



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Fransiya	60,2	139,7	141,1
 <i>Eksport</i>	60,0	139,4	140,5
<i>Import</i>	0,2	0,3	0,6
Rossiya	23,3	32,0	31,2
 <i>Eksport</i>	8,1	9,7	17,4
<i>Import</i>	15,2	22,3	13,8
XXR	23,7	24,9	21,6
 <i>Eksport</i>	0,4	1,0	2,7
<i>Import</i>	23,3	23,9	18,9
AQSH	0,3	0,3	12,0
 <i>Eksport</i>	-	-	2,8
<i>Import</i>	0,3	0,3	9,2
Buyuk Britaniya	1,1	-	9,9
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,1	-	9,9
Qozog'iston	13,8	8,5	7,8
 <i>Eksport</i>	2,9	1,4	1,5
<i>Import</i>	10,9	7,1	6,3
Turkiya	11,4	10,2	7,1
 <i>Eksport</i>	4,6	6,4	3,0
<i>Import</i>	6,8	3,8	4,1
Daniya	1,0	5,4	4,8
 <i>Eksport</i>	-	4,1	4,3
<i>Import</i>	1,0	1,3	0,5
Yaponiya	1,2	3,1	4,0
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,2	3,1	4,0
Germaniya	1,3	5,2	2,9
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,3	5,2	2,9

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Eron	0,8	2,4	2,0
 <i>Eksport</i>	0,5	1,7	0,1
<i>Import</i>	0,3	0,7	1,9
Litva	4,4	1,4	1,9
 <i>Eksport</i>	1,7	1,0	1,1
<i>Import</i>	2,7	0,4	0,8
Afg'oniston	3,7	4,3	1,8
 <i>Eksport</i>	3,7	4,3	1,8
<i>Import</i>	-	-	-
Qirg'iz Respublikasi	3,0	2,5	1,8
 <i>Eksport</i>	2,7	2,4	1,3
<i>Import</i>	0,3	0,1	0,5
Shveysariya	0,1	0,7	1,6
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,1	0,7	1,6
Koreya Respublikasi	2,3	2,4	1,4
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	2,3	2,4	1,4
Braziliya	-	-	1,1
 <i>Eksport</i>	-	-	1,1
<i>Import</i>	-	-	-
Hindiston	3,6	0,7	1,1
 <i>Eksport</i>	-	-	0,4
<i>Import</i>	3,6	0,7	0,7
Pokiston	0,6	0,2	0,9
 <i>Eksport</i>	0,3	0,1	0,9
<i>Import</i>	0,3	0,1	-
Turkmaniston	0,5	1,7	0,9
 <i>Eksport</i>	0,5	1,4	0,5
<i>Import</i>	-	0,3	0,4



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI *


(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 75,3 % ulush bilan 199 780,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,01 % ulush bilan 29,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 16,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 83,1 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 44,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 23,6 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 21,2 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2025- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

Rossiya – 11,8



Qozog'iston – 2,9



Qirg'iz Respublikasi – 0,6



Ukraina – 0,3




Tojikiston – 0,3



Belarus – 0,2



Ozarbajjon – 0,2




Armaniston – 0,2




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (11,8 %), Qozog'iston (2,9 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (0,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 41,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 21,2 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 20,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 183,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2024- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral, ulushi % da)



2,5 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0 %

2. Ichimliklar va tamaki



5,4 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari



2,7 %

4. Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar



0,1 %

5. Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar



79,9 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar



7,2 %

7. Sanoat tovarlari



0,3 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



1,8 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



0,1 %

11. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	175,8	183,4	2,0 b.	104,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,2	4,5	84,4	87,2	3,0	2,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,4	10,0	2,9 b.	4,1 b.	1,4	5,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	4,2	4,9	2,3 b.	116,5	2,4	2,7
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,1	-	6,4	0,2	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	142,4	146,6	2,3 b.	103,0	81,0	79,9
Sanoat tovarlari	17,6	13,2	127,1	75,5	10,0	7,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	0,5	-	-	-	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	3,4	3,3	157,5	96,9	1,9	1,8
Xizmatlar	0,2	0,3	119,7	159,1	0,1	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (79,9 %), sanoat tovarlari (7,2 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar (5,4 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2025- yil yanvar-fevral)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4 536,6	87,2
Sabzavotlar va mevalar	2 777,6	2,0 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 693,7	47,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	64,8	21,3
Tirik hayvonlar	0,5	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9 980,8	4,1 b.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 328,3	135,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	371,2	27,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	54,5	-
Metall rudalari va metall parchalari	8 196,3	-
Tabiiy kauchuk	30,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	4 915,7	116,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4 915,7	116,5
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	26,9	6,4
O'simlik moyi va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	26,9	6,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	146 652,0	103,0
Noorganik kimyo moddalari	141 406,0	101,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	970,6	48,8
O'g'itlar	4 047,4	1099,8 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	36,0	3,9 b.
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	1,8	0,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	190,2	151,6


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	13 239,2	75,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	5 078,3	36,3
Rangli metallar	5 675,2	2,2 b.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 379,0	2,7 b.
Cho'yan va po'lat	20,4	33,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	86,3	177,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	487,4	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	90,8	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	2,6	-
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	393,4	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,6	-
Turli xil tayyor buyumlar	3 328,5	96,9
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3 124,6	97,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	109,3	49,1
Poyabzal	92,2	-
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari , isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	2,4	-
Xizmatlar	259,2	159,1
Moliyaviy xizmatlar	92,6	95,0
Transport xizmatlari	17,0	33,7
Safarlar	5,7	38,3
Boshqa xizmatlar	143,9	-

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga 23,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning 12,9 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Daniya, Turkiya, AQSH, Xitoy va Afg'oniston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2024 y.	2025 y.		
Fransiya	139 452,2	140 543,5	100,8	1
Rossiya Federatsiyasi	9 707,3	17 440,0	179,7	2
Daniya	4 138,2	4 300,8	103,9	3
Turkiya	6 364,5	3 006,7	47,2	4
AQSH	412,8	2 821,9	6,8 b.	5
Xitoy	1 033,9	2 714,6	2,6 b.	6
Afg'oniston	4 259,6	1 817,5	42,7	7
Qozog'iston	1 435,1	1 497,7	104,4	8
Qirg'iz Respublikasi	2 421,4	1 262,6	52,1	9
Braziliya	0,0	1 128,9	0,0	10
Litva	1 016,3	1 128,2	111,0	11
Pokiston	99,6	923,5	9,3 b.	12
Ukraina	474,8	740,2	155,9	13
Tojikiston	733,6	717,9	97,9	14
Belarus	451,5	525,3	116,3	15
Ozarbajon	106,8	485,2	4,5 b.	16
Turkmaniston	1 361,3	471,2	34,6	17
Armeniya	61,1	441,7	7,2 b.	18
Hindiston	0,0	428,6	0,0	19
Birlashgan Arab Amirliklari	84,4	185,3	2,2 b.	20

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI * (2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 84,4 % bilan 154 834,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani 0,002 % bilan 3,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar-fevral oylarida 1 219,0 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 74,0 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Xitoy (49,8 %) hamda Rossiya Federatsiyasi (41,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2025- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 292,3 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 141,9 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2025- yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025- yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Xitoy	483,0	643,8	49,8
 Rossiya Federatsiyasi	564,5	539,1	41,7
 Kanada	22,0	39,5	3,0
 Eron	24,0	26,8	2,1
 Belarus	30,1	26,8	2,1
 Iroq	95,4	16,3	1,3

* qiymat ifodasidan



2025- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Xitoyga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 49,8 % ini), bu esa Kanada davlatini eksport hajmiga nisbatan 16,6 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo‘yicha 4 577,4 ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 2,5 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 81,0 % ni tashkil etdi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (68,1 %), sintetik, jut tolalar (29,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 6 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



4 577,4 (2024 y.: 5 647,6)

Jami




3 116,1 (3 183,6)

Kiyim-kechak Ip kalava



1 328,3 (606,5)

Sintetik, jut tolalar



42,3 (557,3)

Ipak mahsulotlari



20,7 (504,7)

Adyol, parda, gilam,
yotoq choyshablari




70,0 (795,5)

Boshqa to‘qimachilik
mahsulotlari

Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 259,2 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 159,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (35,7 %), transport xizmatlari (6,6 %), safarlar turizm xizmatlari) (2,2 %) va boshqa xizmatlar (55,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 81,7 mln. AQSH dollarini va 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (54,4 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (11,3 %) hamda sanoat tovarlari (9,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2025- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



5,2 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0 %

2. Ichimliklar va tamaki



1,0 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



11,3 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar



0,0 %

5. Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar



8,8 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



9,6 %

7. Sanoat tovarlari



54,4 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,6 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



6,1 %

11. Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi 76,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,0 mln. AQSH dollariga etdi.

**Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	79,0	81,7	94,2	103,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,0	4,2	120,5	70,0	7,6	5,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,5	0,8	99,8	57,3	1,8	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,1	9,2	131,4	60,0 b.	0,2	11,3
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	-	22,2	-	0,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	15,5	7,2	169,8	46,4	19,6	8,8
Sanoat tovarlari	20,9	7,9	87,4	37,6	26,5	9,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	30,8	44,4	84,0	144,4	39,0	54,4
Turli xil tayyor buyumlar	2,8	3,0	91,3	106,7	3,5	3,6
Xizmatlar	1,1	5,0	35,1	4,6 b.	1,4	6,1



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar-fevral)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4 194,2	70,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 878,3	37,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	142,0	2,3 b.
Sabzavotlar va mevalar	1 653,9	2,4 b.
Tirik hayvonlar	455,4	4,7 b.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	64,6	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	834,7	57,3
Probka va yog'och-taxtalar	196,4	90,3
Metall rudalari va metall parchalari	108,0	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	308,6	184,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	221,7	24,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	9 207,2	60,0 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9 184,7	61,8 b.
Ko'mir, koks va briketlar	22,5	4,6 b.
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	7 194,7	46,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	122,1	56,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4 168,1	153,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	774,2	8,2
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	116,6	39,9
Noorganik kimyo moddalari	887,7	54,6
Organik kimyo moddalari	238,2	38,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	514,6	105,5
O'g'itlar	9,5	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	363,7	2,8 b.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	7 868,4	37,6
Cho'yan va po'lat	1 241,8	53,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 555,5	72,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 665,5	2,3 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	256,9	14,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	70,8	95,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	391,9	85,2
Rangli metallar	2 648,2	19,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	37,8	70,2 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	44 456,8	144,4
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3 438,8	99,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	7 556,0	84,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	6 316,6	77,4
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	6 150,1	2,1 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	17 573,3	5,0 b.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	1 904,2	84,2
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	99,9	2,2 b.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	1 417,9	100,6
Turli xil tayyor buyumlar	2 965,6	106,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 114,2	94,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	671,1	155,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	119,0	126,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	44,6	4,3 b.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3,0	7,5 b.
Poyabzal	13,6	114,4
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	0,1	4,8
Xizmatlar	5 008,3	4,6 b.
Transport xizmatlari	2 974,0	3,7 b.
Moliyaviy xizmatlar	287,5	-
Safarlar (turizm xizmatlari)	9,9	78,2
Boshqa xizmatlar	1 736,9	6,4 b.

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2025- yil yanvar-fevral oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 25,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 71,0 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyati 47 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, AQSH, Qozog'iston, Turkiya va Yaponiya) jami importning 80,9 % ini tashkil qiladi, bu 66,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2024 y.	2025 y.		
Xitoy	23 865,5	18 901,4	79,2	1
Rossiya Federatsiyasi	22 319,7	13 828,2	62,0	2
Buyuk Britaniya	36,6	9 900,6	270,5 b.	3
AQSH	0,0	9 148,4	0,0	4
Qozog'iston	7 098,9	6 265,0	88,3	5
Turkiya	3 767,6	4 116,2	109,3	6
Yaponiya	3 148,7	3 998,2	127,0	7
Germaniya	5 169,2	2 926,7	56,6	8
Eron	648,4	1 849,7	2,9 b.	9
Shveysariya	688,0	1 563,3	2,3 b.	10
Koreya Respublikasi	2 387,9	1 403,8	58,8	11
Xitoy, Makao MMR	0,0	880,8	0,0	12
Litva	415,0	821,0	197,8	13
Italiya	1 474,1	679,1	46,1	14
Hindiston	670,2	668,3	99,7	15
Fransiya	283,4	620,5	2,2 b.	16
Daniya	1 297,3	518,6	40,0	17
Ispaniya	30,9	465,2	15,1 b.	18
Qirg'iz Respublikasi	97,9	455,1	4,7 b.	19
Bangladesh	0,0	439,0	0,0	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI (2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 55,0 % bilan 44 946,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,01 % bilan 9,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollarida)




2025- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5 008,3 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 6,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 b. ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (59,4 %), moliyaviy xizmatlar (5,7 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,2 %) va boshqa xizmatlar (34,7 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2025- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 7 868,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,6 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 9,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2025- yil yanvar-fevral)

2 254,6 ming AQSH
doll. *Ulushi – 28,7 %*



XXR

2 009,9 ming AQSH
doll. *Ulushi – 25,5 %*



Qozog'iston

1 233,2 ming AQSH
doll. *Ulushi – 15,7 %*



Rossiya

757,3 ming AQSH
doll. *Ulushi – 9,6 %*



Turkiya

439,0 ming AQSH
doll. *Ulushi – 5,6 %*



Bangladesh



2025- yil yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi 2 254,6 ming AQSH dollari (28,7 %), Qozog'iston 2 009,9 ming AQSH dollari (25,5 %) va Rossiya 1 233,2 ming AQSH dollari (15,7 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.